

G'AFUR GULOM HAYOTI VA IJODI.

Ixtiyorjonova Gulafshon Bunyodjonovna

*Farg'ona davlat universiteti filologiya
fakulteti tojik tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi
ixtiyorjonovag@gmail.com*

Annostatsiya. *Ushbu maqolada butun umri davomida ko'pdan-ko'p she'rlar, dostonlar yozgam, sho'ro siyosati va komfirqa mafkurasi tasirida el-yurtni yuksak ko'tarinkilik ruhida yashash va mehnat qilishga chorlagam, G'afur G'ulom hayot yo'li haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *G'afur G'ulom, ota-onasi, talabalik davrlari, "Vaqt" she'ri, "Shum bola" asari, "Netay" qissasimuallif ijodi, taqvim she'rlari, yuksak mukofot, falsaviy obrazlar, purhikmatlilik.*

*Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'idir umr daftarin.*

G'afur G'ulom

Nodir iste'dod sohibi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, faylasuf shoir, nosir G'afur G'ulom xalqimiz va butun ezgu niyatli bashariyatning qalbiga quloq tuta olgan, ularning dardini dildan his eta bilgan olim, shoir va yozuvchi edi. G'afur G'ulom ijodiy merosining salmoqli qismini nasriy asarlari, xususan qissalari tashkil etadi. Mazkur qissalarni davr va shaxs talqini nuqtai nazaridan o'rganish yoshlar tarbiyasi, madaniy merosga munosabatini shakllantirish, XX asr vaqeligining badiiy talqinlarini yangicha qarashlar asosida o'rganish negizida estetik didini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



G'afur G'ulom — O'zbekistonning taniqli yozuvchisi hamda uning she'riyati va nasrida o'zbek xalqi tarixi o'zining badiiy timsolini topgan ijodkor. Yozuvchining ijodi rang-barang —

she'rlar, qo'shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalardan iborat. O'zbek xalqining sevimli ijodlari G'afur G'ulom 1903-yilning 10-may kuni Toshkentda, dehqonlar oilasida tug'ilgan. Uning otasi dehqon bo'lishiga qaramay, o'z davrining savodli kishilaridan bo'lgan. U o'zbek va tojik mumtoz adabiyotini o'qigan, rus tilini bilgan, o'zi ham she'rlar yozgan. 1916-yilning kuzida G'ofur o'qishga kiradi. U otasi va onasi vafot etganidan keyin talabalik davrlarida ishlashga majbur bo'lgan. Qashshoqlik va yetishmovchilik deb ataluvchi tilsim ming-minglab bolajonlar qatori kelajakning buyuk shoiri –“o'ninchi yillarning sargardon”ini ham o'z quchog'iga oldi. Etikdo'z kosibga qarashdi, kunduz kunlari singillarini boqib, kechqurun qo'shni mahalladagi tegirmonda qorovullik qildi. Sariboy degan boyning ko'shkin bog'ini qo'ridi. Ko'p yillar o'tgach, shu boy eshigidagi xizmatlarni G'afur G'ulom o'zining «Shum bola» qissasiga ustalik bilan singdirib yubordi. G'afur G'ulomning Ko'plab kasblarda o'zini sinab ko'rgach, u nihoyat, matbaaga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi, so'ngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. 1919- yildan 1927-yilgacha u o'qituvchi, maktab direktori, Ma'naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo'lib ishlaydi. U otaonasidan erta yetim qolgani uchun bolalar uyi qurilishida ham ma'naviy, ham amaliy yordam bergan. 1923-yildan G'afur G'ulomning adabiy faoliyati boshlanadi. 1923-yil yozilgan ilk ijodlaridan “Feliks farzandlari” she'rida yetim bolalar haqida gapirarkan, unda yozuvchi o'z hayotini ifodalaydi, “Maorif va o'qituvchi” oynomasida esa “Go'zallik qayerda” nomli ikkinchi she'ri nashr qilinali. Birin-ketin she'riy to'plamlari bosmadan chiqadi: “Dinamo”, “Xitoy suratlari”, “Biz sizlar bilan tirikmiz”, “Jonli qo'shiqlar”, “Sizga”, “Sovg'a”, “Tong qo'shig'i”, “Qo'qon” dostoni va boshqalar. Ijodkor ijodining ilk yillardayoq ko'plab she'rlar, dostonlar, ocherklar, hajviy hikoyalar va qissalari gazeta va jurnallarda chop etadi. G'afur G'ulom faqat she'rlar yozish bilan cheklanib qolmay, sovet davridagi adolatsizlikni kelajak avlodga yetkazish uchun bir qancha hikoyalar yozgan. Ulardan “Netay” (1930), “Yodgor” (1936), “Shum bola” (1936-1962) qissalari va “Shariat nayranglari” (1930), “Mening o'g'rigina bolam” (1965) hikoyalarida chinakam xalq qahramonlari, milliyligimiz tavsirlangan. Ijodkorning “Shum bola” asari sovet tuzumi davridagi adolatsizliklarni hamda o'sha davr aholisining turmush tarzini ochiqchasiga ko'rsatib bergan. G'afur G'ulomning keng ommaga ma'lum va suyuq qissasi “Shum bola”ga hozirda ko'proq sarguzasht asar, kulgi asari deb qaraymiz. Ha, chindan ham Shum bolaning turfa xangomalarga boy sarguzashti, undagi ichakuzdi holatlar shunday o'ylashimizga asos berar. Biroq, e'tibor qilinsa, adibning kulgisi, sarguzashtli syujet botinida uning zamonasi haqidagi anchagina jiddiy o'y-fikrlari, tahliliy mulohazalari yotganini ham ko'rishimi mumkin bo'ladi. Ma'lumki, Shum bola hikoyasini o'zi o'sgan muhit bilan tanishtirishdan (shu o'rinda bir shartni qabul qilaylik: bu, aslida, o'smirlik paytidagi hayotning adib xotirasida tiklangan eng muhim nuqtalaridir) boshlaydi. Ko'ramizki, hademay mustaqil hayotga qadam qo'yishi va hozirdan shunga tayyorlanishi lozim bo'lgan 14-17 yoshli o'smirlar bekorchilikka mahkum. Sababi otalarining “ko'pchiligi mayda kosiblar bo'lganliklari uchun ularning qo'lidan hunarlarini olib yoki ularning yoniga ko'makchi bo'lib tushish bizga to'g'ri kelmas edi. Otalarimizning o'ziga ish topilmaganda, bizga ish qayoqda deysiz?” Ya'ni, Shum bola va uning teng-to'shlariga ertangi istiqbol ko'rinmaydi.



G'afur G'ulom faqat she'rlar, qissalar va boshqa asarlar yaratish bilan cheklanib qolmay, dunyoning mashhur yozuvchilarini asarlarini tarjimasi bilan ham shug'ullangan. Masalan, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmet, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga mohirona tarjimasi bilan mashhur bo'lgan. G'afur G'ulom o'zbek tarjima maktabining maydonga kelishiga ham ulkan hissa qo'shgan. U «Otello», «Qirol Lir» singari jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan o'g'irgan. G'afur G'ulom O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi edi. G'ofur G'ulom "Navoiy va bizning davr" (1948), "Folklordan o'rganaylik" (1939) tadqiqotlarini, "Jaloliddin dramasi haqida" (1945), "Muqimiy" (1941) maqolalarini yaratgan.

Urush yillarida G'ofur G'ulom "Sen yetim emassan", "Seni kutyapman, o'g'lim!", "Vaqt", "Kuzatish", "Ayol", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak" kabi ajoyib she'rlar yaratgan. "Seni kutyapman, o'g'lim!" she'rida shoir front ortida o'zlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan g'alabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi. G'afur G'ulomning 60 yillik yubileyi munosabati bilan «O'zbekiston xalq shoiri» faxriy unvoniga sazovor bo'lgan (1963). . Adib 1966-yilda vafot etgan. Lekin G'afur G'ulomning nomi va asarlari abadiy qoladi. 2000 yilda Vatan oldidagi unutilmas xizmatlari uchun unga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.

G'afur G'ulom hayoti, ijodiy merosining qimmat, qadri doimo adabiyotshunoslik va tanqidchilikning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ijod namunalari 30-yillardayoq maktab va Oliy o'quv yurtlari dasturlaridan o'rin olgan. Hozirgacha mustaqilligimizni mustahkamlash, zamondoshimiz badiiyestetik didini o'stirishga xizmat qilib kelmoqda. G'.G'ulom hayoti va ijodiy merosining o'rganilishini shartliravishda ikki davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. 1.Yakkahokim mafkuraviy-dabiy siyosat hukmron bo'lgan davr. 2. Mustaqillik davri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ёқубов Ҳ. Ғафур Ғулом (ҳаёти ва ижоди). – Т: Бадиий адабиёт, 1959
2. Каримов Н. Ғафур Ғулом. – Т: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2003.
3. Мамажонов С. Ғафур Ғулом прозаси. – Т: Фан, 1966
4. Мамажонов С. Услуб жилолари. – Т: Адабиёт ва санъат, 1972
5. Матёқубова Т. Ғафур Ғулом бадиияти. – Т: Фан ва технология, 2006
6. Назаров Б. Ғафур Ғулом олами. – Т: Фан, 2004.